

2 - bery.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

“IQTISODIYOT”

bo'yicha prorektor prof.R.To'rayev 06

Ro'yxatga olindi: № BD.60310500-1.14
2024-yil “ 26 ” 06

MAKROIQTISODIYOT

FANING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 300000- Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta'lim sohasi: 310000- Ijtimoiy va xulq-atvoriga mansub fanlar
Ta'lim yo'nalishi: 60310500- Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Termiz - 2024

7.	O'quv dasturi Termiz davlat universiteti Kengashining 2024-yil 26-iyundagi 11-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: O.A.Abdug'aniyev TerDU, Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani, i.f.d., professor B.E.Turayev TerDU, "Iqtisodiyot" kafedrası mudiri, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori. N.J.Nurmatov TerDU, "Iqtisodiyot" kafedrası katta o'qituvchisi. F.D.Hojiqulova TerDU, "Iqtisodiyot" kafedrası o'qituvchisi.
9.	Taqrızchilar: Gadoyev S.J. – Termiz davlat universiteti "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrası mudiri, i.f.d. Otamurodov Sh.N. – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektori, i.f.d.

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar
MACROE6	2024-2025	4	6
Fan/modul turi	Haftadagi dars soatlari		
Majburiy	6		
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Makroiqtisodiyot	90	90	180
1.			
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Makroiqtisodiy barqarorlik va yalpi ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali aholining turmush farovonligi darajasini o'stirish davlat iqtisodiy siyosatida bosh maqsad bo'lib hisoblanadi. Davlat iqtisodiy siyosatining nazariy asoslari sifatida tan olinadigan fanlar qatorida "Makroiqtisodiyot" fani alohida o'rin tutadi.</p> <p>Yalpi ishlab chiqarishning barqaror o'sishini, resurslarning to'liq bandligini, inflatsiyaning past sur'atlarini va to'lov balansining muvozanatini ta'minlash nuqta nazaridan mamlakat iqtisodiyotini bir butun holda tadqiq qilish va uni makroiqtisodiy tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini o'rganish "Makroiqtisodiyot" fanining predmetini tashkil etadi.</p> <p>"Makroiqtisodiyot" fani milliy iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bog'liq barcha jihatlarini, jumladan mehnat resurslari, tovarlar, pul bozorlarining amal qilishi, monetar, fiskal va tashqi savdo siyosatini amalga oshirish hamda boshqa masalalarni qamrab oladi.</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda makroiqtisodiyot nazariyasi va davlatning makroiqtisodiy siyosati to'g'risida bir tizimga solingan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifalari – makroiqtisodiy kategoriyalar, makroiqtisodiy muammolarning namoyon bo'lishi shakllari va sabablari, iqtisodiy jarayonlarni makroiqtisodiy modellar vositasida tahlil etish, makroiqtisodiy siyosat maqsadlari va vositalari, ochiq iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy siyosat yuritish xususiyatlari to'g'risida ilmiy tasavvurlarni shakllantirish hamda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash, makroiqtisodiy konsepsiya va modellardan foydalangan holda iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, makroiqtisodiy siyosat natijalarini aniqlash usullarini o'rgatishdan iborat.</p>		

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-MODUL. "MAKROIQTISODIYOT" FANINING NAZARIY ASOSLARI

1-mavzu. Makroiqtisodiyot fanining predmeti, maqsadi va tadqiqot usullari

"Makroiqtisodiyot" fanining shakllanish tarixi. Dastlabki makroiqtisodiy tahlil elementlari, "Kene jadvali". Asosiy makroiqtisodiy muammolar. "Makroiqtisodiyot" fanining predmeti va usullari. "Makroiqtisodiyot" fanining iqtisodiyot sohasidagi boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Makroiqtisodiy modellar. Yopiq va ochiq iqtisodiyot. Endogen va egzogen o'zgaruvchilar.

2-mavzu. Milliy hisobchilik va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar

Milliy hisobchilikning mohiyati va ahamiyati. Milliy iqtisodiyotni tahlil qilishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi. Yalpi ichki mahsulot milliy hisoblar tizimining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichi sifatida. Oraliq hamda yakuniy tovarlar va xizmatlar. YalMni hisoblashning ishlab chiqarish usuli. YalMni xarajatlar bo'yicha hisoblash. Shaxsiy iste'mol xarajatlari. Yalpi investitsiyalar. Tovarlarni va xizmatlarning davlat xaridi. Sof eksport. YalMni daromadlar bo'yicha hisoblash. Yalpi milliy daromad. Sof ichki mahsulot. Sof milliy daromad. Iste'mol. Jam'arish. Nominal va real YalM. YalM deflyatori (Paashe indeksi). Iste'mol narxlari indeksi (INI). Fisher indeksi.

3-mavzu. Iqtisodiy sikllar. Ishsizlik

Iqtisodiy sikllarning mohiyati. Iqtisodiy tebranishlarning sabablari: Ilmiy texnika taraqqiyoti. Siyosiy hodisalar. Tabiiat hodisalar. Talab va taklif o'rtasidagi nisbat. Yalpi xarajatlardagi o'zgarishlar. Iqtisodiy sikllarning fazalari va ularning tavsifi. Ishsizlik tushunchasi. Ish bilan bandlar va ishsizlar. Ishsizlikning neoklassik va keynscha konsepsiyalari. Real ish haqi, ish kuchi taklifi va unga talab. Ishsizlikning keynscha konsepsiyasi. Ishsizlikning haqiqiy va tabiiy darajasi. Potensial va haqiqiy YalM. Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari. Ouken qonuni.

4-mavzu. Inflyatsiya va aksilinflyatsiya siyosati

Inflyatsiya: mohiyati, hisoblanishi va turlari. Inflyatsiya darajasi. Inflyatsiyani miqdoriy o'lchash. Inflyatsiyaning sabablari, pulning miqdoriy nazariyasi. Pul massasining ko'payishi. Pul aylanish tezligining ortishi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmlarining pasayishi. Talab inflyatsiyasi. Inflyasion kutish. Xarajatlar inflyatsiyasi. Kutilgan va kutilmagan inflyatsiya. Fisher samarasi. Inflyatsiyaning ijtimoiy oqibatlari. Inflyatsiya va ishsizlik. Fillips egri chizig'i. Inflyatsiyaga qarshi siyosatning mohiyati, vositalari. Inflyatsiyaga qarshi siyosatning monetaristik yo'nalishi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi inflyatsiya jarayonlari va aksilinflyatsiya siyosati xususiyatlari.

5-mavzu. Yalpi talab – yalpi taklif modeli

Yalpi talab tushunchasi. AD egri chizig'ini. Narx omillari. Foiz stavkasi samarasi. Boylik samarasi va import xaridlari samarasi. AD egri chizig'ini trayektoriyasi. Pulning miqdoriy nazariyasi. Narxlar darajasi va yalpi talab o'rtasidagi teskari bog'liqlik. Narxdan boshqa omillarning yalpi talabga ta'siri. Yalpi taklif tushunchasi va egri chizig'ini. Resurslar narxining o'zgarishi. Yalpi taklifdagi o'zgarishlar. Yalpi taklifning klassik modeli. AS egri chizig'ining vertikalligi. Yalpi taklifning keynscha modeli. Narxlarining muvozanatli darajasi. Umumiy muvozanat tushunchasi. AD-AS modelida muvozanatning ta'minlanishi mexanizmi. Talab shoklari. Taklif shoklari. Yalpi taklif o'zgarishining oqibatlari. Barqarorlashtirish siyosati. Pul taklifi va davlat xarajatlarining o'zgartirilishi.

6-mavzu. Iste'mol va jamg'arish funksiyalari.

Yalpi talab komponentlari orasida iste'molning o'rni. Iste'mol funksiyasining algebraik va grafik ko'rinishi. "Asosiy psixologik qonun". Avtonom iste'mol. Daromad (shaxsiy tasarrufdagi daromad) va iste'mol o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. Jamg'arish funksiyasi va grafigi. Foiz stavkasi va jamg'arish. Iste'molga (ARC) va jamg'arishga o'rtacha moyillik (APS). Iste'molga (MRC) hamda jamg'arishga (MPS) chegaraviy moyillik. Avtonom investitsiyalar. Foiz stavkasi. Kutilayotgan sof foyda normasi.

7-mavzu. Investitsiya funksiyasi

Investitsiyaning mohiyati, turlari va grafigi. Investitsiyalar dinamikasini belgilovchi foiz stavkasidan boshqa omillar. Investitsiyalarga talab funksiyasi. Akselerator modeli. Investitsiyalashga chegaraviy moyillik. Investitsiyalarning beqarorligini belgilovchi omillar. Asosiy fondlarga investitsiyalar. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan investitsion siyosat.

8-mavzu. Keynsning tovarlar va xizmatlar bozoridagi makroiqtisodiy muvozanat modeli

Keynsning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi asoslari. Haqiqiy va rejalashtirilgan xarajalar. "Keyns xochi". Ishlab chiqarish hajmining muvozanat darajasiga erishish mexanizmi. Avtonom xarajalar multiplikatori. Retssion va inflyatsion uzilish.

2-MODUL. DAVLATNING MAKROIQTISODIY SIYOSATI

9-mavzu. Davlat budjeti. Soliqlar va davlat qarzi.

Davlat budjetining mohiyati, tarkibi va funksiyalari. Daromadlarni qayta taqsimlash. Iqtisodiyotni davlat tomonidan ta'tibga solish va rag'batlantirish. Ijtimoiy siyosatni moliyaviy ta'minlash. Davlat budjeti daromadi. Davlat nobudjet jamg'armalari. Konsolidatsiyalashgan budjet. Soliqlar. Soliqlarning turlari, funksiyalari. Soliqqa tortish mezonlari Soliq yuki. Laffer egri chizig'ini.

Chegaraviy soliq stavkasi. Davlat budjeti xarajatlari. Budjet taqchilligi. Davlat byudjetining xarajatlari. Davlat byudjetining soliqqlarga ko'ra tarkibi. O'zbekiston Respublikasida soliq islohotlarining o'ziga xos xususiyati.

10-mavzu. Budjet-soliq siyosati

Budjet-soliq (fiskal) siyosati: mohiyati, maqsadlari va vositalari. Rag'batlantiruvchi va cheklovchi fiskal siyosat. Yopiq va ochiq iqtisodiyotda davlat xarajatlari multiplikatori. Soliq multiplikatsiyasi mexanizmi. Soliq multiplikatori. Balanslashgan budjet multiplikatori. Diskret fiskal siyosat. Davlat budjeti taqchilligi va profitsiti. Nodiskret fiskal siyosat. Avtomatik barqarorlashtirgichlar. Progressiv soliq tizimi. Davlat transferlari tizimi. Davriy taqchillik va davriy profitsit. Davlat budjetining tarkibiy taqchilligi. Tarkibiy profitsit. Taqchillikni moliyalash usullari.

11-mavzu. Pul bozorida muvozanat

Pul tushunchasi va uning funksiyalari. Pul agregatlari. Pulga talabning klassik nazariyasi. Pulga talabning keynscha nazariyasi. Pulga bo'lgan talab funksiyasi. O'zbekistonda pul agregatlari va pul massasi tarkibi. Pul taklifi. Bank multiplikatori. Pul taklifining kengaytirilgan modeli pul multiplikatori.

12-mavzu. Pul-kredit siyosati

Bank tizimining tarkibi. Pul-kredit (monetar) siyosatining mohiyati. Majburiy zahiralash normasi. Asosiy stavka (qayta moliyalash stavkasi). Ochiq bozordagi operatsiyalar. Qat'iy va yumshoq pul-kredit siyosati. Pul-kredit siyosatining ta'siri ishlab chiqarish hajmiga yetkazish mexanizmi. Yalmining o'sishi va pul-kredit siyosati. Pul-kredit siyosatining ko'zda tutilmagan salbiy samaralari. Pul-kredit va budjet-soliq siyosatini muvofiqlashtirish muammolari, siqib chiqarish samarasi. O'zbekiston Respublikasida bank tizimi barqarorligini oshirish va pul-kredit siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.

13-mavzu. IS-LM modelining shakllanishi va tadbiri

Xiks-Xansen modelining mohiyati. Modelning tenglamalari va asosiy o'zgaruvchilari. Ekzogen va endogen o'zgaruvchilar. Empirik koeffitsientlar. Tovarlarning xizmatlar bozoridagi muvozanat. IS egri chizig'ini. IS egri chizig'ining tenglamasi.

LM egri chizig'ini. LM egri chizig'ining tenglamasi. LM egri chizig'ining gorizontali, ko'tarilib boruvchi va vertikal kesimlarida multiplikator samarasi. Daromadlar, pulga talab va foiz stavkasi. IS-LM modelidagi muvozanat. Tovar va pul bozoridagi muvozanat. IS-LM modelida budjet soliq siyosati. IS-LM modelida pul-kredit siyosati. Pul-kredit siyosatining samaradorligi. Likvidlik tuzog'ini. Investitsiya tuzog'ini.

14-mavzu. Iqtisodiy o'sishning umumiy tavsifi va neokeynscha modellari

Iqtisodiy o'sish tushunchasi, ahamiyati. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i. Ishlab chiqarishning potentsial hajmi dinamikasi. Iqtisodiy o'sishning o'lanishi, real YaIM va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real YaIM dinamikasi. Ekstensiv va intensiv iqtisodiy o'sish. Iqtisodiy o'sishning taklif, talab va taqsimot omillari. Ishlab chiqarishning moddiy-ashyoviy omillari. Mehnat unumdorligini oshiruvchi omillar. Iqtisodiy o'sish modellarning mohiyati va ahamiyati. Iqtisodiy o'sishning neokeynscha modellarning o'ziga xos xususiyatlari. E.Domar modeli. Akselerator prinsipi. Talab tenglamasi. Taklif tenglamasi. Talab va taklif muvozanati tenglamasi. R.Xarrod modeli. To'liq bandlik sharoitida barqaror o'sish formulasi.

15-mavzu: Iqtisodiy o'sishning neoklassik modellari.

R.Solouning neoklassik modeli asoslari. R.Solou modelida kapitalning chiqib ketishi aholi soni o'sishining barqaror muvozanati va iqtisodiy o'sishga ta'siri. Texnologik taraqqiyotning iqtisodiy o'sishga ta'siri. Felpsning "oltin qoidasi". Iqtisodiy o'sishning J.Mid va A. Lyuis modellari. O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni ta'minlash omillari va natijalari.

16-mavzu. Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish

Iqtisodiyotni tartibga solishda davlat ishtiroki tavsifi va darajasini o'zgarishi. Davlatning iqtisodiy vazifalari. Davlat tomonidan tartibga solish subyektlari va obyektleri. Iqtisodiyotga davlat aralashuvining shakllari va usullari. Iqtisodiyotga davlat aralashuvining chegaralari. Ijtimoiy tovarlar: tushunchasi, mohiyati va tasnifi. Davlat sektori va davlat mulki. Milliy iqtisodiyotda ijtimoiy tanlov. Ijtimoiy tanlov nazariyasi.

17-mavzu. Xalqaro savdo nazariyalari.

Xalqaro savdoning zarurligi va ko'rinishlari. Jahon iqtisodiyotida xalqaro savdo ko'lamlarining ortib borishi. A.Smitning mutlaq ustunlik nazariyasi. Mutlaq xarajatlardagi farq. D.Rikardoning nisbiy ustunlik nazariyasi. Turli tovarlarni ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi nisbat. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chiziqchilari. To'liq ixtisoslashish. O'rin almashtirish xarajatlarning ortib borishi. Xeksher-Olin nazariyasi. Ishlab chiqarishning ortiqcha va taqchil omillari. "Leontyev paradoksi (taajjubi)". M.Porter nazariyasi, raqobat ustunligini belgilovchi omillar. Jahon bozorida talab va taklif.

18-mavzu. Tashqi savdo siyosati

Tashqi savdo siyosati: mohiyati va maqsadlari, usullari. Tarif va notarif usullari. Import tariflari. Tariflarning baholar darajasi, iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilarga ta'siri. Milliy farovonlikning sof yo'qotilishi. Yangi paydo bo'lgan tarmoqlarni himoya qilish. Ichki bandlik va davlat daromadlarining o'sishi. Dempingdan himoya. "Optimal tarif". Ishlab chiqaruvchilarga

subsidiyalar. Eksportga bojlar: qo'llashdan kutilgan maqsadlar, aholi turmush darajasi, ishlab chiqaruvchilar va davlat manfaatlariga ta'siri. Eksportni "ixtiyoriy" cheklash. Eksport subsidiyalari va kompensatsiyalovchi import bojlari. Import kvotalari. Import litsenziyalarini taqsimlash uslublari.

19-mavzu. To'lov balansi.

To'lov balansi tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishi. Joriy operatsiyalar hisobi balansi. Kapital harakati hisobi balansi. To'lov balansining nomunatosibligini tartibga solish. To'lov balansining tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqliklar. To'lov balansini makroiqtisodiy tartibga solish vositalari va usullari.

20-mavzu. Valyuta kursining makroiqtisodiy siyosatga ta'siri

Valyuta bozori. Valyuta ayirboshlash zarurati. Chet el valyutasiga talab. Chet el valyutasini taklif etish. Valyuta bozorida muvozanatning kichik mamlakat modeli. Valyuta kursi. To'g'ri, bilvosita va teskari kotirovka. Egiluvchan va qayd etilgan valyuta kursi. Valyutaning qadsizlanishi va qimmatlashishi. Devalvatsiya va revalvatsiya. Nominal valyuta kursi. Real va real samarali valyuta kurslari. Xarid qobiliyati pariteti. Valyuta kursiga ta'sir etuvchi omillar. Muvozanatli valyuta kursi. Makroiqtisodiy siyosatning muvozanatli valyuta kursiga ta'siri.

21-mavzu. Ochiq iqtisodiyotda makroiqtisodiy siyosat

Ochiq iqtisodiyotda muvozanatli ishlab chiqarish hajmi. Ochiq iqtisodiyotda yalpi ishlab chiqarish hajmi. Ichki xarajalar va savdo balansi. Sof eksport. Ichki xarajalar va milliy ishlab chiqarish hajmi. Eksport va importning milliy iqtisodiyotga ta'siri. Eksport va import o'rtasidagi bog'liqlik. Sof eksport va muvozanatli ishlab chiqarish hajmi. Ochiq iqtisodiyot uchun Keynes xochi. Mandell-Flemingning ochiq iqtisodiyot modeli. Ochiq iqtisodiyotda pul-kredit siyosati. Fiskal siyosatning samaraliligi. Erkin suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitida iqtisodiy siyosat.

22-mavzu: "Yashil iqtisodiyot"ni shakllantirish asosida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning barqaror o'sishini ta'minlash.

Ekologiya va iqtisodiyotning o'zaro aloqadorligi. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining yangi konsepsiyalari. "Yashil texnologiyalar" va iqtisodiyot. Energiyaning muqobil manbalari va ularning iqtisodiyotga ta'siri. Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs)da "yashil iqtisodiyot" orqali iqtisodiy o'sishga erishish masalalari.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Makroiqtisodiyot fanining predmeti, maqsadi va tadqiqot usullari.
2. Milliy hisobchilik va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar.

3. Iqtisodiy sikllar. Ishsizlik.
4. Inflatsiya va aksilinflyatsiya siyosati.
5. Yalpi talab – yalpi taklif modeli.
6. Iste'mol va jamg'arish funksiyalari.
7. Investitsiya funksiyasi.
8. Keynsning tovarlar va xizmatlar bozorida makroiqtisodiy muvozanat modeli.
9. Davlat budjeti.
10. Soliqlar va davlat qarzi.
11. Budjet-soliq siyosati.
12. Pul bozorida muvozanat.
13. Pul-kredit siyosati.
14. IS-LM modelning shakllanishi va tadbiqi.
15. Iqtisodiy o'sishning umumiy tavsifi va neokeynscha modellari.
16. Iqtisodiy o'sishning neoklassik modellari.
17. Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish.
18. Xalqaro savdo nazariyalari.
19. Tashqi savdo siyosati.
20. To'lov balans.
21. Valyuta bozori va valyuta kursining makroiqtisodiy siyosatga ta'siri.
22. Ochiq iqtisodiyotda makroiqtisodiy siyosat.
23. "Yashil iqtisodiyot"ni shakllantirish asosida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning barqaror o'sishini ta'minlash.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jhozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda mumosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

- Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:
1. Makroiqtisodiy modellar. Asosiy makroiqtisodiy modellarning qiyosiy tahlili.
 2. MHTda yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichini hisoblash shartlari va usullari.
 3. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.
 4. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularni hisoblash.
 5. O'zbekiston Respublikasining YalM tarkibidagi o'zgarishlar tahlil.
 6. Iqtisodiy inqirozlar, ularning kelib chiqish sabablari va oqibatlari.
 7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va uning asosiy funksiyalari.
 8. O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyati va ularni barqarorlashtirishning asosiy yo'nalishlari.
 9. O'zbekiston Respublikasining kredit siyosati va uning asosiy yo'nalishlari.
 10. O'zbekiston Respublikasida mehnat bozorining shakllanishi va ishsizlikning o'ziga xos xususiyatlari.

11. Xususiy tadbirkorlikning aholini ish bilan ta'minlashdagi o'rni.

12. Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari. Ouken qonuni.
 13. Inflatsiyaning mohiyati va kelib chiqish sabablari.
 14. Aksilinflyatsiya siyosati.
 15. Filips egri chizig'i. Modelning zamonaviy talqini.
 16. Iste'mol va jamg'arish funksiyalari.
 17. Investitsiya funksiyasi va omillari.
 18. O'zbekiston Respublikasi investitsiya siyosati.
 19. Yalpi talab- yalpi taklif modeli.
 20. Yalpi talab va yalpi taklifni rag'batlantirish yo'llari.
 21. AD-AS modelida muvozanatning ta'minlanishi mexanizmi.
 22. Keynsning makroiqtisodiy muvozanat modeli.
 23. Pul tushunchasi va funksiyalari. Pul bozorida muvozanat.
 24. Soliqlarning makroiqtisodiy mohiyati va roli.
 25. O'zbekiston Respublikasida soliq siyosatini takomillashtirish yo'llari.
 26. Davlat budjeti tarkibi va uni takomillashtirish yo'llari.
 27. Budjet-soliq siyosati.
 28. O'zbekiston Respublikasi budjet-soliq siyosati.
 29. Pul-kredit siyosati va ulardan foydalanish amaliyoti tahlili.
 30. O'zbekiston Respublikasi pul-kredit siyosati.
 31. Pul-kredit va budjet-soliq siyosatini muvofiqlashtirish muammolari.
 32. IS-LM modelida budjet-soliq va pul-kredit siyosati.
 33. Xiks-Xansen modeli. Ekzogen va endogen o'zgaruvchilar.
 34. Iqtisodiy o'sish omillari va tiplari.
 35. Iqtisodiy o'sish modellarning mohiyati.
 36. Iqtisodiy o'sishning neokeynscha modellari.
 37. Iqtisodiy o'sishning neoklassik modellari.
 38. Zamonaviy iqtisodiy o'sish modellari.
 39. Xalqaro savdo nazariyalari.
 40. Mudraq va nisbiy ustunlik nazariyalarining o'ziga xos xususiyatlari.
 41. Jahon bozorida talab, taklif va taqsimot.
 42. Xeksher-Olin nazariyasi. Ishlab chiqarishning ortiqcha va taqchil omillari.
 43. Import kvotalari. Kvotalashning iste'molchilar, ishlab chiqaruvchilar va davlat manfaatlariga ta'siri.
 44. Tashqi savdo siyosati. Tashqi savdo tarkibini takomillashtirish va diversifikatsiyalash.
 45. O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalari va uning asosiy tendensiyalari.
- Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

- Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:
- "Makroiqtisodiyot" fanining predmeti, obyekt, makroiqtisodiy agentlar;
 - makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning mohiyati va ularni hisoblash shartlari;
 - asosiy makroiqtisodiy modellarni va ularda iqtisodiy jarayonlarning kechishi hamda makroiqtisodiy siyosat natijalarini aks ettirish;
 - tovarlar va xizmatlar bozorida makroiqtisodiy muvozanatga erishish mehanizmining mohiyati;
 - pulga talab, pul taklifi va pul bozorida muvozanatga ta'sir etuvchi omillar;
 - budjet-soliq va pul-kredit siyosatining maqsadlari, vositalari;
 - iqtisodiy o'sishning mohiyati, o'lchamishi, omillari va modellari;
 - tashqi sado siyosatining nazariy asoslari va vositalari;
 - mamlakat to'lov balansining tuzilishi va uni tartibga solish usullari;
 - valuta kursining mohiyati, makroiqtisodiy ahamiyati, uni belgilovchi omillar va barqarorligini ta'minlash shartlari;
 - ochiq iqtisodiyotda makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirish xususiyatlari haqida *tasavvurga ega bo'lishi*;
 - iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda makroiqtisodiy modellarni qo'llashni;
 - makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishni;
 - makroiqtisodiy siyosatning ijobiy va salbiy oqibatlariga baho berishni;
 - makroiqtisodiy siyosatning istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini prognoz qilishni *bilishi*;
 - makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash;
 - asosiy makroiqtisodiy modellarning o'zgaruvchilarini aniqlash va tenglamalarini tuzish;
 - tovarlar va xizmatlar bozorida qisqa va uzoq muddatli muvozanatni ta'minlash mexanizmini tushuntirib berish;
 - pul bozorida muvozanat yuzaga kelishining xususiyatlarini aniqlash;
 - makroiqtisodiy siyosatning iqtisodiy jarayonlar va alohida ko'rsatkichlarga ta'sir ko'rsatishi qonuniyatlarini aniqlash;
 - turli makroiqtisodiy vaziyatlarda budjet-soliq yoki pul-kredit siyosatini qo'llash hamda o'zaro muvofiqlashtirish shartlarini tushuntirib berish;
 - tashqi savdo siyosati va valuta kursini tartibga solish orqali to'lov balans holatiga, yalpi talab va yalpi taklif hajmlariga ta'sir ko'rsatish usullarini tavsiflab berish;
 - ochiq iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy jarayonlarning kechishi hamda makroiqtisodiy siyosatning o'ziga xos xususiyatlarini, milliy va jahon iqtisodiyoti darajasida bozor mexanizmi qanday amal qilishini izohlab berish *ko'nikmalariga ega bo'lishi* kerak.

3.

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;
- esse, tezis va maqolalar yozish;
- vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish;
- jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim;
- muhokamalarda ishtirok etish;
- kichik guruhlarda ishlash;
- loyiha ishi bajarish;
- mustaqil ishlarni bajarish;
- taqdimot tayyorlash;
- turli darajadagi testlarni yechish;
- so'rov o'tkazish.
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

5.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishini topshirish.

6.

Asosiy adabiyotlar.

1. Maxmudov N.M., Shakarov A.B., Ulashev X.A., Shakarov J.A. Makroiqtisodiyot: Darslik. -T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2022, 454 b.
 2. Bekmurodov N.X., Tuxtabayev J.Sh., Yuldashev Sh.E., Usmanov A.A., Yarmatov Sh., Nurullayev U.U., Hasanov H.O'. Makroiqtisodiyot, Darslik. - T.: Bookmany print, 2022, 344 b.
 3. Asqarova M.T., Zaxidov G'E., Amirov L.F., Jamolov J.J. Makroiqtisodiyot. Darslik. -T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021, 280 b.
- Qo'shimcha adabiyotlar**
1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent. "O'zbekiston" NMIU, 2021, 464 b.
 2. Mirzaxodjayev A.B., Sharifov Sh.S., Boboqulov S.B. Makroiqtisodiyot. O'quv qo'llanma. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021, 248 b.
 3. Mankiw N. Gregory. Macroeconomics, Ninth edition, Worth Publishers, USA, New York, 2016, 644 p.
- Axborot manbalari**
1. <https://www.lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
 2. <https://www.imv.uz/> - Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
 3. <https://www.stat.uz/> - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huzuridagi Statistika agentligi.